

DOI: 10.5281/zenodo.15659237

Link: <https://zenodo.org/records/15659237>

## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY DASTAKLARI

Istamova Muhabbat Isroilovna

"Servis" kafedrasi assistenti

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

[00\\_bek94@mail.ru](mailto:00_bek94@mail.ru)

+998 90 199 87 77

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy dastaklari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonlari xizmatlar sifati, tezkorligi va qulayligini oshirib, butun iqtisodiy tizimning samaradorligini kuchaytirmoqda. Maqolada raqamli infratuzilma, malakali kadrlar tayyorlash, elektron xizmatlar, davlat siyosati, kiberxavfsizlik va innovatsion tadbirkorlik kabi omillar asosiy rivojlantiruvchi dastaklar sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha takliflar berilgan hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sohasi, raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, innovatsiya, davlat siyosati, IT kadrlar, avtomatlashirish.

**Kirish.** Bugungi raqamli dunyoda har bir iqtisodiyot sohasining rivojlanishi juda muhim jarayondir. Zero, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyaga o'tib borishi, uning tarkibidagi sohalar va tarmoqlarning ham rivojlanishi juda muhimdir. Bularning ichida xizmatlar sohasi ham bo'lib, uning rivojlanishi doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib, xizmatlar sohaning rivojlanishida raqamli texnologiyalar va raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari asosiy dastaklardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-sonli Qarori asosida shuni aytish mumkinki, xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish, yangi loyihalarni ishga tushurish masalalari belgilangan [1].

**Adabiyotlar sharhi.** Bugungi kunda xizmatlar sohasini turli xil mohiyat jihatidan olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Bu borada mamlakatimiz olimalaridan G.I.Aliyeva o'zining ilmiy ishlarida xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish, ularning xususiyatlaridan foydalanilgan holda yangi rivojlanish bosqichlarini amalga oshirish lozimligini aytib o'tadi [2].

Yana bir guruh olimlarimiz U.T.Xayitmatov va O.O.Xolikova esa raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy tahlilini amalga oshirib, xizmatlarning raqamli formatlarda rivojlantirish masalalariga asosiy urg'uni berib o'tganlar [3].

Qolaversa, A.O.Ochilov va A.A.Xudoyorov ham xizmatlar sohasini rivojlantirish, ularning o'ziga xos jihatlarini ochib berish, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish yo'llari bo'yicha izlanishlarni olib borib, xizmatlarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biri ekanligi ta'kidlaydilar [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy dastaklari o‘rganilgan bo‘lib, ularni o‘rganishda induksiya va dekuksiya metodlaridan, kuzatish, tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Dunyoning aksariyat mamlakatlarida keyingi o‘n yilliklarida xizmat ko‘rsatish sohasi davlatning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini belgilab bermoqda. Sanoat va qishloq xo‘jaligida yangi texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi xizmatlar sohasini bandlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Servis sohasining rivojlanishi universal jarayon bo‘lib, so‘ngi o‘n yillikda quyidagi tendensiyalar uyg‘unligi bilan belgilanadi:

- ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi;
- barqaror rivojlanish, globallashuv hamda insonparvarlashuvning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlari;
- xizmat ko‘rsatish tendensiyalari va gibrild mahsudotning paydo bo‘lishi;
- hamkorlik iqtisodiyoti va birgalikdagi iste’mol iqtisodiyotining rivojlanishi;

Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog‘liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o‘z ichiga oladi. Raqamli ma’lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, kompaniyalarning asosiy aktiviga aylanib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o‘ynaydi.

Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlovchi xizmat ko‘rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta’minlaydigan texnologiyalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Global miqyosda raqamlashtirish jarayonlari jadallahsgani sari xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ham yangi texnologik yechimlar asosida yangilanmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, “bulutli texnologiyalar”, IoT (Internet of Things), blokcheyn va big data kabi raqamli texnologiyalar xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirishning quyidagi asosiy dastaklarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

**Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.** Xizmat ko‘rsatish subyektlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishi uchun yuqori tezlikdagi internet, ma’lumotlar markazlari, xavfsiz to‘lov tizimlari va raqamli identifikatsiya kabi infratuzilmalarning mavjudligi zarur. Bu sohaga davlat va xususiy sektor sarmoyalarini jalg qilish strategik ahamiyat kasb etadi.

**Kadrlar salohiyatini oshirish.** Xizmatlar sohasida zamonaviy texnologiyalarni boshqara oladigan, IT savodxonligi yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Bunda oliy ta’lim muassasalari va kasb-hunar markazlarining o‘rni muhim.

**Elektron xizmatlar va platformalar rivoji.** Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar, onlayn maslahatlar, mobil ilovalar va interaktiv portallar xizmatlar sohasining yangi ko‘rinishlarini shakllantiradi. Bu esa hududiy chegaralarni yo‘qqa chiqarib, xizmatlarning keng auditoriyaga yetkazilishini ta’minlaydi.

**Davlat tomonidan raqamli islohotlarni qo'llab-quvvatlash.** Hukumatlar tomonidan raqamli iqtisodiyotga oid strategik hujjatlar, qonunchilik bazasini takomillashtirish va subsidiyalar orqali xizmatlar sektorining modernizatsiyasi rag'batlantirilmoqda. Masalan, O'zbekistonning 2023–2030 yillarga mo'ljallangan "Raqamli O'zbekiston" strategiyasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

**Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi.** Raqamli xizmatlar uchun foydalanuvchilar ishonchini qozonish — muhim vazifa. Bu esa faqatgina ishonchli kiberxavfsizlik tizimlari, shaffoflik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish orqali amalga oshiriladi.

**Innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.** Startaplar va texnologik kompaniyalar xizmatlar sohasiga yangi mahsulot va yechimlar olib kiradi. Ularni moliyalashtirish, inkubatsiya markazlari orqali qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion xizmatlar bozori shakllanadi.

**Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning joriy etilishi.** Xizmatlar sohasida AI va robotlashtirilgan tizimlar mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va inson resurslariga bo'lган ehtiyojni optimallashtiradi.

Tadqiqot davomida olingan va o'rganilgan jihatlardan kelib chiqqan holda aniq misollarda rivojlantirish dastaklari ishlab chiqildi.

### 1-jadval

#### Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy dastaklari (misollar bilan)

Dastak nomi	Mazmuni	Amaliy misollar
Raqamli infratuzilma	Internet, ma'lumotlar markazlari, raqamli to'lov tizimlari	O'zbekistonda "UzDigital TV", "UZTELECOM" orqali keng polosali internet tarmog'i joriy etilishi
Kadrlar salohiyatini oshirish	IT bo'yicha mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash	"IT Park Uzbekistan" kurslari, "One Million Uzbek Coders" loyihasi
Elektron xizmatlar va raqamli platformalar	Onlayn xizmatlar va ilovalar orqali xizmat ko'rsatish	Davlat xizmatlari – my.gov.uz, bank ilovalari – Apelsin, Click, Payme
Davlat siyosati va qonunchilik	Raqamlashtirishni rag'batlantiruvchi hujjatlar va normativ baza	"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, elektron elektron imzo joriy etilishi
Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi	Foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash	Milliy sertifikatlash markazi, elektron to'lov tizimlarida ikki bosqichli autentifikatsiya
Innovatsion tadbirkorlikni qo'llash	Startaplar, texnoparklar, grantlar orqali yangi xizmatlarni rivojlantirish	IT Park'dagi startap inkubatorlar, "Technovation Girls" tanlovlari
Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish	Xizmatlarni avtomatlashtirish, chatbotlar, AI yordamida xizmat ko'rsatish	Bank chat-botlari (Kapitalbank, Ipak Yo'li), onlayn dorixonalar, AI yordamida tibbiy maslahatlar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish – mamlakatning umumiyligi raqamli salohiyatini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va xalq farovonligini ta'minlashda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Bu jarayonda davlat siyosati, texnologik infratuzilma, ta'lim tizimi va innovatsion muhit bir-birini to'ldiruvchi asosiy omillar sifatida qaralishi lozim.

**Xulosa va takliflar.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sishning yangi omiliga aylanmoqda. Texnologik taraqqiyot, raqamli infratuzilmaning kengayishi va axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida xizmatlar sohasi samaradorligi ortib bormoqda. Ayniqsa, elektron xizmatlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtirib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratmoqda.

Bu jarayonda davlat siyosatining izchil yuritilishi, malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion muhitni rivojlantirish hamda raqamli xavfsizlikni ta'minlash kabi omillar hal qiluvchi rol o'yamoqda. Xizmatlar sohasini raqamlashtirish orqali nafaqat xizmat sifati oshadi, balki yashirin iqtisodiyot qisqaradi, ish o'rirlari ko'payadi va aholining hayot sifati yaxshilanadi. Keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

Hududiy raqamli infratuzilmani rivojlantirish asosida aholi zinch yashaydigan, lekin texnologik imkoniyatlari cheklangan hududlarda keng polosali internet, mobil aloqa va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish zarur. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun IT ko'nikmalarini oshirish dasturlarini joriy etish orqali maxsus qisqa muddatli kurslar, onlayn platformalar orqali xodimlarga elektron xizmatlar bilan ishlash, raqamli xavfsizlik va mijozlar bilan onlayn muloqot ko'nikmalari o'rgatilishi lozim.

Yoshlar va xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish imkoniyatlaridan innovatsion xizmatlar bozorida faol bo'lishi mumkin bo'lgan yoshlar va ayollarni grant, inkubatsiya va treninglar orqali rag'batlantirish kerak. Elektron xizmatlar va platformalarni yaratishda mahalliy ehtiyojlarni inobatga olish asosida hududlar kesimida xizmatlar segmentatsiyasini o'rganib, mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga mos onlayn platformalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Sun'iy intellekt va chatbotlardan foydalangan holda davlat va xususiy xizmatlarni avtomatlashtirish lozim bu orqali maxsus tizimlar yordamida fuqarolarga tez, shaffof va uzlusiz xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish muhim. Xizmatlar sohasidagi raqamli xavfsizlik bo'yicha huquqiy va texnik baza mustahkamlanishi lozim. Bu esa foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish, elektron hujjat aylanishi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi mexanizmlar kuchaytirilish zaruratini amalga oshirishni nazarda tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldag'i "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-7408455>

2. Alieva, G.I. Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari // Orienss. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmatlar-sohasini-raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-rivojlantirish-imkoniyatlari>

3. Xayitmatov Uktam Turgunovich, Xolikova Oydin Olimjonovna. (2024, December 11). Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy tahlili. VI traditional international scientific and practical conference "Professional development of the personality of the XXI century in the

system of continuous education: problems and ways of their solution”, December 3-4, 2024

4. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). Integration of science, education and production in the process of training. World scientific research journal, 4(2), 7-11.

5. Морозов М.А., Морозова Н.С., Развитие цифровой сервисной экономики и ее влияние на рынок труда // Сервис plus. Т. 12. 2018. № 1. С. 100-107 DOI: 10.22412/1993-7768-12-1-10